

HAIKU JANRIDA “BO‘SHLIQ” KONSEPTINING FALSAFIY TAHLILI

Erkinova Ruxshona

*Samarqand davlat chet tillar instituti,
Sharq tillari fakulteti talabasi
ruxshona.erkinova23@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yapon adabiyotining haiku janrida muhim o‘rin tutuvchi “ma” (間), ya’ni “bo‘shliq” konsepti estetik va falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilindi. Tadqiqotda haikunavis Matsuo Basho, Kobayashi Issa va Masaoka Shiki kabilar haikularidagi “ma” ning badiiy ifoda shakllari solishtirilib, ularning har birida “ma” ning turlicha ma’no kasb etishi ko‘rsatildi. Tahlil natijalariga ko‘ra haikuda “bo‘shliq” konsepti nafaqat pauza yoki ritmik to‘xtash, balki o‘quvchini ichki sokinlik va hozirlik holatiga olib kiruvchi ruhiy tajriba ekanini tasdiqlaydi. Maqola haiku poetikasini va yapon estetik tafakkurini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: yapon adabiyoti, haiku, “ma” (間), bo‘shliq, estetik bo‘shliq, “mushin” (無心), Matsuo Basho, Kobayashi Issa, Masaoka Shiki, Zen falsafasi.

Kirish

Yapon adabiyoti dunyo madaniyatida o‘zining betakror minimalistik uslubi, jimlik va tabiat bilan uyg‘unlikni ifodalashdagi nozikligi bilan alohida o‘rin egallaydi. Bu jihatlar haiku janrida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bir misradan, 5, 7, 5 bo‘g‘in, ya’ni umumiy 31 bo‘g‘indan iborat haiku, tashqi jihatdan sodda ko‘rinsa-da, ichki mazmun jihatidan chuqur falsafiy qatlamlarga ega. Haiku, o‘zbek tilida uch misra shaklida tarjima qilinadi, shu sabab “Uchlik” she’riyati deb ataladi.

Haikuning asosiy estetik tamoyillaridan biri bu – “ma” (間) tushunchasidir. “Ma” yapon madaniyatida “bo‘shliq”, “pauza”, “jimlik”, “oraliq” ma’nolarini anglatadi. Ammo bu oddiy bo‘shliq emas, balki ma’no bilan to‘ldirilgan jimlik, ichki sezgi orqali anglandigan fazodir. Aynan shu “to‘xtash” lar paytida talaba-o‘quvchi haikuni tasavvuridagi obrazga aylantiradi. Haiku ana shu “bo‘shliq” orqali talaba-o‘quvchini fikrdan hissiyotga, so‘zdan sukutga olib boradi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda semantik tahlil, qiyosiy adabiyotshunoslik va estetik-falsafiy yondashuv usullari qo‘llanildi.

Manba sifatida quyidagi asarlar va ilmiy maqolalar tahlil qilindi:

- ✓ Yapon she’riyatidan. Xoldor Vulqon tarjimasi. (1983 yil)

✓ Matsuo Basho. Oku no Hosomichi (1702 yil, tarjimasi “Shimolning olis tomoniga tor yo‘l”)

✓ William J. Higginson. The Haiku Handbook (1989 yil, tarjimasi “Hayku qo‘llanmasi”)

✓ D.T.Suzuki. Zen and Japanese Culture (1970 yil, tarjimasi “Zen va yapon madaniyati”)

✓ Gunter Nitschke. Ma: Place, Space, Void. Kyoto Journal (2018 yil, tarjimasi Ma: joy, makon, bo‘shliq)

✓ Julie Bloss Kelsey. Negative Space – Some Thoughts on Ma. The Haiku Foundation. (2025 yil, tarjimasi Bo‘shliq falsafasi – “Ma” haqidagi ba’zi mulohazalar)

Shuningdek, haiku namunalari o‘zbek tiliga tarjima qilinib, ularning kireji – kesuvchi so‘z, ya’ni she’r ichida fikrni “kesuvchi”, kuchaytiruvchi yoki hisni ta’kidlash uchun ishlatiladigan so‘z orqali hosil bo‘ladigan “bo‘shliq” konsepti semantik tahlil qilindi.

Muhokama va natijalar

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, haikuda “ma” uch darajada namoyon bo‘ladi:

1. Strukturaviy “ma” – 5, 7, 5 bo‘g‘inli misralar orasidagi tabiiy pauza.
2. Til va ritmdagi “ma” – “ya”, “kana”, “keri” kabi kireji orqali yaratilgan to‘xtash, pauza.
3. Falsafiy “ma” – jimlik orqali hosil bo‘ladigan ichki uyg‘unlik va sezgi holati.

Keyingi navbatda, aniq misollar bilan tahlil qilamiz.

古池や 蛙飛びこむ 水の音

(ふ る い け や か わ ず と び こ む み ず の お と)

Eski hovuz

qurbaqa sakrab tushdi

suvning tovushi.

(tarjima muallifga tegishli)

Matsuo Bashoning ushbu mashhur haikusi sokinlikdagi hayot, bo‘shliqdagi harakat falsafasining ifodasidir. Ushbu haikuda “ya” kirejisi bo‘shliqni yaratadi. Shu to‘xtashda o‘quvchi “jimlik tovushini” eshitadi, xuddi shu “ma” (間) ning badiiy kuchidir. Bundan tashqari, “qurbaqa sakrab tushdi” hamda “suvning tovushi” satrlari orasida ham sezilmas vaqt oraliq mavjud. Bu qurbaqaning sakrab tushishidan oldingi havoda bo‘lish onlaridir. Butun haiku jimlikdan tovushga, so‘ng yana jimlikka qaytish jarayonini tasvirlaydi. Haykuda “ma” bo‘shliq sifatida emas, balki voqealar orasidagi hayot nafasi sifatida ifodalangan. Basho aynan shu jimlik va sokinlik hissini o‘quvchiga yetkazmoqchi bo‘lgan.

瘦蛙 まけるな 一茶これにあり

(や せ が え る ま け る な い っ さ こ れ に あ り)

Ozg‘in qurbaqa**taslim bo‘lma, kurash****Issa – shu yerda (senga hamdard)!**

(tarjima muallifga tegishli)

Kobayashi Issaning bu haikusi, urg‘ocha qurbaqalarga qarshi kechadigan “qurbaqa janglari”ning shiddatli tasviri bilan tanilgan. Ushu haikudagi “jimlik” yoki “bo‘shliq” 5, 7, 5 bo‘g‘inlarning oxirida uchraydi. “Ma” orqali haiku muallifi, Kobayashi Issaning tabiatga bo‘lgan mehr-muhabbati his qilinadi. Kobayashi Issa haikularidagi “ma” odatda inson va tabiat o‘rtasidagi mehr fazosidir.

柿くへば 鐘が鳴るなり 法隆寺

(かきくえば かねがなるなり ほうりゅうじ)

Xurmo yeb turganimda**ibodatxona ko‘ng‘irog‘i chaldi****Bu Horyu-ji.**

(tarjima muallifga tegishli)

Masaoka Shikining ushbu haikusi Bashoning yuqoridagi “Eskihovuz” haikusi, haiku janrining eng mashhur namunalaridan biri sifatida tanilgan. Ushbu haiku xurm ta‘mi va ibodatxona ko‘ng‘irog‘ining tovushi orqali kundalik hayot bilan tarixni, his-tuyg‘u bilan ruhiyatni uyg‘unlashtirgan go‘zallikni tasvirlaydi. Ushbu haikuda “ma” ni – kundalik hayot va ruhiy lahza o‘rtasidagi oraliq deb ifodalash mumkin.

Haiku – so‘zlar orqali jimlikni yaratish san‘atidir. “Ma” esa, jimlikning o‘zi emas, balki jimlikdagi mavjudlik hissidir. Yapon estetikasi nazariyalarida “ma” (間) – mavjudlikning bor (有, ari) va yo‘qlik (無し, nashi) o‘rtasidagi muvozanatni ifodalaydi. Zen falsafasida “ma” – 無心 (mushin) demakdir, ya‘ni fikrsiz holat, bo‘sh qalq holatiga tengdir. Ong jim, ammo to‘liq hushyorlik holatida demakdir. Pok va soddaligi bilan to‘liq ochiq qalb holatini anglatadi. Haiku o‘quvchida shunday holatni uyg‘otadi. Shu bois, “ma” – faqat poetik pauza emas, balki ruhiy tajribadir.

“Ma” g‘arb adabiyotidagi “manfiy bo‘shliq” yoki “salbiy fazo” (negative space) tushunchasiga o‘xshaydi, lekin undan chuqurroq, sababi unda jimlik ortida mavjudlik hissi ifodalangan. Masalan, Matsuo Basho haikularida jimlik – tovushdan avvalgi sokinlikni, Kobayashi Issa haikularida esa mehrni, Masaoka Shikida esa ruhiy uyg‘unlikni anglatadi.

Xulosa

“Ma” (間) – haikuning estetik tuzilmasida so‘zsiz ma‘no ifodasidir. Bu bo‘shliq – o‘quvchi tafakkurida to‘ldiriladigan ichki makon hisobalandi. Haikuning badiiy kuchi aynan shu jimlikda, shu “oraliq”da yashiringan.

Xulosa qilish mumkin:

- ✓ “Ma” – haikuning falsafiy markazi;
- ✓ U tabiat, inson va vaqt o‘rtasidagi uyg‘unlikni yaratadi;
- ✓ Haiku o‘quvchini jimlik orqali “haiku ichida yashash” holatiga olib kiradi.

Zamonaviy o‘quvchi uchun “ma” tushunchasi ruhiy muvozanatni qayta his etish, shoshqaloqlikdan tinchlik sari o‘tish imkonini hisoblanadi. Haiku shu yo‘l bilan, ya’ni sukut orqali so‘zlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bashō, Matsuo. The Narrow Road to the Deep North. Tokyo: Kodansha, 1966.
2. Julie Bloss Kelsey. “Negative Space – Some Thoughts on Ma.” The Haiku Foundation.
[New to Haiku: Negative Space — Some Thoughts on Ma - The Haiku Foundation](#)
3. Higginson, William J. The Haiku Handbook. Tokyo: Kodansha International, 1989.
4. Nitschke, Gunter. “Ma: Place, Space, Void.” Kyoto Journal.
[MA: Place, Space, Void – Kyoto Journal](#)
5. Suzuki, D.T. Zen and Japanese Culture. Princeton University Press, 1970.
6. Singer Blaine, Ilana. “The Aesthetic of ma – The Charged Emptiness in Japanese Art.” Academia.edu, 2021.
7. Ueda, Makoto. Matsuo Bashō and the Way of Haiku. Tuttle Publishing, 1992.
8. Yapon she’riyatidan. Xoldor Vulqon tarjimasi. (1983 yil)
9. クルボノヴァ, & グルノザ. [源氏物語] の女子教育—光源氏による明石の姫君の [后がね. 教育—][文化継承学論集] 第, (10), 13-25.
10. Kurbonova, Gulnoza, & Borankulova, Samal (2022). 平安時代の子女教育・教養論の研究. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (Special Issue 24), 85-95.
11. Курбонова, Г. (2021). Сравнительный анализ узбекских и японских народных сказок (На примере сказок «Золотой арбуз» и 『雀報恩の事』 – «О благодарности воробья»). Иностранная филология: язык, литература, образование, (3 (80), 62–66. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/foreign_philology/article/view/1784
12. Библиографические ссылки
13. クルボノヴァ・グルノザ・イリキノブナ. (2024). 村上春樹 『鏡』 試論. 愛知県立大学日本文化学部論集, (15), 208-201.